

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

URAZOV BAGDAT TULEPBERGENOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI VATANGA
MUHABBAT TUYG'USIDA TARBIYALASH JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

(Qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishlari misolida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UDK. 378.015.31:172.15

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Urazov Bagdat Tulepbergenovich

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish texnologiyasi (Qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishlari misolida)..... 3

Уразов Багдат Тулепбергенович

Технология совершенствования процессов воспитания студентов высших учебных заведений чувства любви к Родине (на примере направлений бакалавриата казахского языка и литературы)..... 25

Urazov Bagdat Tulepbergenovich

Technology for improving the process of educating university students with the feeling of love for the Homeland (Based on the example of undergraduate programs in kazakh language and literature)..... 51

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

URAZOV BAGDAT TULEPBERGENOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI VATANGA
MUHABBAT TUYG'USIDA TARBIYALASH JARAYONLARINI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

(Qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishlari misolida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped573 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.bimm.uz) va axborot-ta'lim portaliga «Ziyonet» (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ibraymov Asqar Esbosinovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Adizov Baxtiyor Raxmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qo'qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "15" 06 soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71-203-01-28; faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (36 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998)71-203-01-28; faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "08" 06 kuni tarqatildi.
(2026 yil "08" 06 dagi 9 -raqamli reestr bayonnomasi).



U.Sh. Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, p.f.d, professor.

A.S. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p. f. d. (DSc), dotsent.

Ya.U. Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, p.f.d. (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda har bir davlat Oliy ta'lim muassasalari talabalarida vatanga muhabbat tuyg'usi ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy ma'naviy ruhiyatni o'stirish, vatan taqdiriga ongli munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Ayni paytda rivojlangan davlatlarda Oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashga qaratilgan vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishga oid tadbirlar, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida vatanga muhabbat tuyg'usini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tizimli tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning eng ilg'or davlatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida Oliy ta'lim muassasalari talabalarida vatanga muhabbat tuyg'usi ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSH oliy ta'limida vatanparvarlik "Fuqarolik mas'uliyati va yetakchilik" dasturlari orqali singdiriladi. Talabalar o'z shtati va mamlakati taraqqiyoti uchun ijtimoiy loyihalarda (Service Learning) majburiy qatnashadilar. Ya'ni, AQSH vatanparvarlikni quruq shior emas, balki "jamiyatga xizmat qilish texnologiyasi" sifatida rivojlantirmoqda. Koreya iqtisodiy mo'jizasining zamirida vatanparvarlik yotadi. Oliy ta'lim muassasalarda talabalarga iqtisodiy vatanparvarlik, milliy brendlarni qadrlash va "Saemaul Undong" (Yangi qishloq harakati) falsafasi zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Ular uchun vatanparvarlik-mamlakat iqtisodiyotini dunyoda birinchi qilishdir. Yaponiyada oliy ta'lim texnologik jihatdan qanchalik ilg'or bo'lmasin, talabalarga milliy qadriyatlar, korporativ vatanparvarlik (o'z korxonasi va mamlakati uchun fidoiylik) va ajdodlar merosiga hurmat axborot texnologiyalari (VR-muzeylar, raqamli platformalar) orqali singdiriladi. Bu orqali Oliy ta'lim muassasalari talabalarida dunyoda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish malakalar shakllanishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz Oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiya ishlariga davlat fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ongiga vatanga muhabbat, mardlik tuyg'ularini singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Yurtimizda bolalar va o'smirlarni vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalaydigan alohida tashkilotlar mavjud emas. Vaholanki, xorijiy davlatlarda allaqachon o'rganishimiz va joriy etishimiz zarur bo'lgan bunday ijobiy tajriba mavjud»¹ degan fikrlari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi va o'z navbatida Oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash tizimini takomillashtirish zaruratini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.139

asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 10-iyundagi 369-son qarori “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-martdagi PQ-150-son “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Vatanparvarlik tarbiyasining falsafiy masalalari J.Tulenov, E.Yusupov, M.Xayrullayev, Q.Nazarov, I.Karimov, A.Erkayevlarning ishlarida yoritib berilgan. Pedagogik sohada vatanparvarlik tarbiyasi bilan K.Tillayev, S.X.Fayzulina, S.K.Annamuratova, J.Hasanboyev, S.Nishonova, N.Ortiqov, N.I.Boldirev, O‘.M.Asqarova, Sh.A.Atadjanova, J.Rahimov, R.Medetova, J.A.Qasimbekov, K.T.Abilg‘aziyevalar shug‘ullanishgan. Xalq pedagogikasi manbalari asosida o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ham alohida tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga Z.Mirtursunov, S.Temirova, D.Shodiyev, B.Qodirov, A.Zunnunov, O.Musurmonova, M.O.Inomovalarning ishlarini kiritish mumkin.

Davlatimiz talabalarida vatanga muhabbat hissini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari pedagog olimlardan S.Atamurodov, S.Axrorov, A.Achildiyev R.Kurbanov, Sh.Paxrutdinov, E.Qalqanov, A.Redjaboyev, A.Samadov, K.Usmonov, X.Xaydaraliyevlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan V.V.Piontkovskiy, A.N.Viridov, V.I.Lutovinov, A.S.Magomedova, K.K.Jamanbaeva, S. I. Qaliyeva, Sh. A. Ilimxanovalarning ilmiy izlanishlarida o‘z millati, xalqi va o‘z Vatanga xos mentaliteti aks ettirilgan.

Xorij olimlari H.Gibb, K.Steven, B.Manz, V.Maurizio, A.Mustafa, M.Rogerlar tomonlaridan, qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib tadqiqot ishlarida Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash yo‘llari tatbiq etilgan.

Mazkur vatanparvarlik bilan uyg'unlashgan ilmiy tadqiqotlarning barchasi o'z davrining qiyofasini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy anjumanlar va to'plamlarda aks etgan. Bizning tadqiqotimiz esa Oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruratidan mazkur tadqiqot ishining mavzusini belgilab berdi va mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №71-07 raqamli "Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-kasbiy barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari" (2020-2023yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarining qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarining tuzilmaviy-funksional modelini takomillashtirish;

qozoq tili va adabiyoti bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish;

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida Oliy ta'lim muassasalari qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlari bo'lib, Guliston davlat universiteti, Navoiy davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika institutlaridan jami 720 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini Oliy ta'lim muassasalari qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish mazmuni, shakllari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, modellashtirish, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

III. Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari "Qozoq tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi mazmunini qadriyatlarga yo'naltirilganligini rivojlantiruvchi ta'lim identivligi jihatlarini vertikal va gorizontol o'lchovlarda makon konsepti bilan majburiy va tanlov fanlarini kredit-modul tizimida variativ optimallashtirish orqali o'qitish asosida takomillashtirilgan;

Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonining tuzilmaviy-funksional modeli o'zbek-qozoq qardoshligi misolida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, milliy meros va an'analarni saqlashda madaniyatlararo kollaborativ faoliyat

natijadorligini ta'minlovchi kognitiv integratsiyalashgan bilimlarni talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishga tarbiyaviy jarayon kontekstida kiritish asosida takomillashtirilgan;

qozoq tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayoni o'zbek-qozoq milliy munosabatlaridagi mushtaraklik va ijtimoiy birdamlikning tarixiy-ma'naviy mohiyatini ongli o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan etno va multimadaniy kompetensiyalarga asoslangan "Umumiy Vatan, umumiy qadriyat" tushunchasi, fuqarolik mas'uliyati va sadoqatini fanlararo bog'likda shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash samaradorligi o'quv-metodik ta'minotni amalga oshirish orqali Vatan, milliy qadriyatlar va fuqarolik burchiga nisbatan aksiologik munosabatning shakllanganligi, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlarga ko'ra diagnostik baholash asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tuzilmaviy-funksional model, diagnostika mezonlari va ko'rsatkichlar majmui ishlab chiqilgan;

Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalashning falsafiy, pedagogik-psixologik omillari aniqlashtirilgan hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish usullarini qamrab olgan innovatsion ta'lim texnologiyalari taklif etilgan;

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv-amaliy mashg'ulotlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim jarayonida, xususan "O'zbek-qozoq adabiy aloqalari", "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti", "Qozoq folklori" fanlarini o'qitishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi talabalarining Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonining takomillashtirilishiga pedagogik va metodik yondashish, ta'lim jarayonida talabalarining madaniyatlararo kompetensiyalarini shakllantirishda milliy qadriyatlar va an'analarning uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarga tayangan holda tadqiqot vazifalariga mos metodlar tanlanganligi, tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash, talabalarda vatanparvarlik xissi, madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, "Qozoq tili va adabiyoti", "Filologiya va tillarni o'qitish (qozoq tili)" ta'lim yo'nalishlarining "O'zbek-qozoq adabiy aloqalari", "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti" va "Qozoq folklori" kabi fanlar mazmunini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkonini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiya, model va usullarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash, talabalarni vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot va

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda treninglar tashkil etishda foydalanish, tillar va madaniyatlar xilma-xilligi sharoitida talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. OTM qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari "Qozoq tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi mazmunini qadriyatlarga yo'naltirilganligini rivojlantiruvchi ta'lim identivligi jihatlarini vertikal va gorizontol o'lchovlarda makon konsepti bilan majburiy va tanlov fanlarini kredit-modul tizimida variativ optimallashtirish orqali o'qitish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2024-yil 30-apreldagi № 70-01-sonli nashr guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan "Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti" darsligining mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 1-martdagi 11-05-1361/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash va barkamol inson shaxsiyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari kengaytirilgan;

Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonining tuzilmaviy-funksional modeli o'zbek-qozoq qardoshligi misolida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, milliy meros va an'analarni saqlashda madaniyatlararo kollaborativ faoliyat natijadorligini ta'minlovchi kognitiv integratsiyalashgan bilimlarni talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishga tarbiyaviy jarayon kontekstida kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-078 sonli nashr guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan "Qozoq folklori" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 1-martdagi 11-05-1361/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik faoliyatda o'zbek va qozoq milliy folklori orqali talabalarda axloqiy, vatanserverlik, jamoaviylik sifatlarini rivojlantirish imkoni yaratilgan;

qozoq tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayoni o'zbek-qozoq milliy munosabatlaridagi mushtaraklik va ijtimoiy birdamlikning tarixiy-ma'naviy mohiyatini ongli o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan etno va multimadaniy kompetensiyalarga asoslangan "Umumiy Vatan, umumiy qadriyat" tushunchasi, fuqarolik mas'uliyati va sadoqatini fanlararo bog'likda shakllantirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2023-yil 27-iyundagi № 88-01-sonli nashr guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan "O'zbek-qozoq adabiy aloqalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-85-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarida Vatanga muhabbat tuyg'usiga oid bilim va ko'nikmalar rivojlantirilgan;

talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash samaradorligi o'quv-metodik ta'minotni amalga oshirish orqali Vatan, milliy qadriyatlar va fuqarolik

burchiga nisbatan aksiologik munosabatning shakllanganligi, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlarga ko'ra diagnostik baholash asosida aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar Guliston davlat universitetining 2023-yil 27-iyundagi № 88-01 sonli nashr guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan "O'zbek-qozoq adabiy aloqalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-85-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan resurslar o'zbek va qozoq adiblarining asarlarida ifodalangan vatanparvarlik g'oyalari tadqiq va targ'ib qilish hamda kelajak avlodga yetib borish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 8 paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti ochib berilgan va respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalari talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoiti va pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida Oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun qadriyatlarga asoslangan (values-based) va kompetensiyaga yo'naltirilgan (competency-oriented) ta'lim modellarining sintezidan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Vatanparvarlik tarbiyasi endilikda faqat hissiy tushuncha emas, balki aniq ijtimoiy ko'nikmalar va professional mas'uliyat majmuiga aylanmoqda. Mamlakatda vatanparvarlikni rivojlantirish masalasi kun tartibidagi masalalardan biridir. Chunki biz kimningdir ichida vatanparvarlik ruhini shakllantira olmasak, davlat, uning tuzilishi va huquqiy tizimiga nisbatan betartiblik yoki huquqiy nigilizm paydo bo'ladi. Shuning uchun ushbu muammoni har

tomonlama ilmiy baholash zarur. Ushbu masala qonunimizning 8-moddasida “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” deb belgilangan. Shuningdek, “Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiladigan fuqarolarning barchasi, ularning millati, tili va jinsi, irqi, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar xammasi bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar” deb yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasida belgilab qo‘yilgan.


Globalashuv va madaniy integratsiya sharoitida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalarida yoshlarni vatanparvarlik va milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Filolog talabalarda Vatanga muhabbat shunchaki his-tuyg‘u emas, balki kasbiy identivlik ya’ni o‘zlikni anglash darajasiga ko‘tarilishi kerak. Qozoq tili va adabiyoti fanlari tarkibidagi matnlar va adabiy meros (masalan, Abay Qunanboyev falsafasi, Muxtor Auezov asarlari, ko‘chmanchilar madaniyati epiki) talabalarda milliy kodni faollashtiradi.

“Qozoq tili va adabiyoti” ta’lim yo‘nalishining mazmuni shunchaki til qoidalari yoki adabiy faktlarni o‘rgatishdan iborat bo‘lib qolmay, talabada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Ya’ni, talaba o‘zini nafaqat mutaxassis, balki o‘z xalqi madaniyati, tili va vatanparvarlik g‘oyalarini tashuvchi shaxs sifatida his qiladi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida fanlararo integratsiya (curriculum integration) tamoyili xizmat qiladi. Bu jarayon gorizontol va vertikal bog‘liqlik orqali tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlaydi. Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish pedagogikada “Makon” konsepti (hudud, yurt, geosiyosiy va madaniy birlik) tushunchasi orqali, ikki xil o‘lchovda amalga oshiriladi. Ushbu ikki yondashuvni birlashtirishning eng maqbul usuli - o‘quv dasturlarini tizimli loyihalash (curriculum integration) hisoblanadi. Bunda vatanparvarlik tarbiyasi bitta fan doirasida cheklanib qolmay, barcha fanlar kesimida, gorizontol va vertikal bog‘liqlikda amalga oshiriladi:

- vertikal o‘lchov (Tarixiylik va davriylik): Vatan tushunchasining o‘tmishdan bugungi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari. Masalan, dostonlar, qadimiy folklor namunalariidan tortib, hozirgi davr adabiyotidagi vatanparvarlik g‘oyalarining tarixiy uzviylikda o‘qitilishi va tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlaydi. 1-kursda talaba milliy qadriyatlarni anglash va tushunish bosqichida bo‘lsa, yuqori kurslarga borib, u o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida “kasbiy vatanparvarlik” bosqichiga yetadi. Vertikal integratsiya bakalavriatning 1-kursidan 4-kursigacha vatanparvarlik darajasining kognitiv bosqichdan (bilish) professional daxldorlik bosqichiga (kasbiy sadoqat) ko‘tarilishini ta’minlaydi (qarang 1-rasm);

- gorizontol o‘lchov (Kenglik va integratsiya): “Makon” konsepti tushunchasining boshqa fanlar va ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi. Qozoq tili va adabiyotini o‘zbek adabiyoti, madaniyati, qo‘shni xalqlar bilan do‘stlik munosabatlari va umuminsoniy qadriyatlar kontekstida, ya’ni fanlararo

aloqadorlikda o‘rganish va o‘quv rejasidagi fanlarning bir-birini to‘ldirishini ta’minlaydi. Masalan, tarix darsida bu hissiyot ilmiy faktlar bilan boyitilsa, adabiyot darsida “Vatan” mavzusi badiiy obrazlar orqali his qildiriladi, yoki boshqa darslarida ushbu tushuncha fuqarolik burchi va mamlakat ravnaqi uchun kasbiy mas’uliyat darajasiga ko‘tariladi. Ayniqsa, adabiyot darslarida qadriyat va kompetensiya uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi: talaba asarni shunchaki o‘qimaydi, balki undagi gumanistik g‘oyalarni bugungi kunning ijtimoiy muammolari bilan qiyoslaydi, o‘z fikrini asosli tarzda ifodalash (kommunikativ kompetensiya) ko‘nikmasini rivojlantiradi.



1-pacm. “Talabalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning rivojlanish trayektoriyasi: milliy o‘zlikni anglashdan kasbiy vatanparvarlikka qadar”

“Qozoq tili va adabiyoti” ta’lim yo‘nalishida talabalarni Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash, ularning kasbiy identivligini qadriyatlar tizimi bilan bog‘lashni talab etadi. Bu jarayonni kredit-modul tizimi talablari asosida optimallashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Kredit-modul tizimining eng katta afzalligi – talabaga tanlov imkoniyatini berishidir. Kredit-modul tizimida o‘quv rejalarining 50-60% qismini majburiy fanlar, qolgan qismini esa tanlov fanlari tashkil etadi. Amaldagi tizimda vatanparvarlik tarbiyasi faqat umumta’lim fanlari (Tarix, Falsafa) zimmasiga yuklatilgan edi. Ushbu tadqiqotimizda ta’lim mazmuni variativ optimallashtirildi:

-vatanparvarlik ruhini beruvchi mavzular nafaqat asosiy majburiy fanlar mazmuniga singdiriladi, balki talabaning qiziqishidan kelib chiqib tanlanadigan tanlov fanlari (masalan, “Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi xalqlari adabiyoti”, “O‘zbek-qozoq adabiy aloqalari”, “Turkiy xalqlar adabiyoti”, “Tarixiy romanlar” va h.k.) tarkibiga ham tizimli kiritildi;

- o'quv rejalari va dasturlari shunday moslashtiriladiki, talaba fanni o'zlashtirish jarayonida ham nazariy bilim oladi, ham kreativ loyihalar, mustaqil ishlar orqali Vatanga muhabbat tuyg'usini amalda his qiladi. Bu ta'lim mazmunini moslanuvchan (variativ) qiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot ishsmisz "Qozoq tili va adabiyoti" yo'nalishi talabalariga shunchaki til o'rgatishni emas, balki zamonaviy kredit-modul tizimi imkoniyatlaridan foydalangan holda, fanlar tarkibidagi tarixiy va hududiy tushunchalar orqali ularni haqiqiy vatanparvar qilib tarbiyalashning yangilangan metodik modelini taqdim etadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, qadriyat va kompetensiya uyg'unligi talabaning qalbini ma'naviyat bilan, qo'lini esa zamonaviy texnologiya va bilim bilan qurollantiradi. Fanlararo integratsiya asosida loyihalangan tarbiyaviy tizim talabada o'z kuchi va davlatining kelajagiga bo'lgan mustahkam ishonchni shakllantiradi. Pirovard natijada, oliy ta'lim tizimi nafaqat diplomli mutaxassisni, balki o'z millatining qadri bilan yashaydigan, uning kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan va bu yo'lda o'z bilimlarini amaliy samaraga aylantira oladigan haqiqiy vatanparvar fuqaroni jamiyatga taqdim etadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa - faqatgina yuqori malakali mutaxassis emas, balki o'z milliy identivligini anglagan, vatanparvar shaxsni tarbiyalashdir. O'zbekiston Respublikasining Milliy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bu jarayonni "makon - qadriyat - kompetensiya" uchligi asosida aniqlashtirish dolzarb pedagogik zarurat hisoblanadi. "Makon" konsepsiyasi bilan identivlik - bu shaxsning o'zi yashab turgan, tug'ilib o'sgan va faoliyat yuritayotgan hududiy birlikni (qishloq, shahar, Vatan) nafaqat jismoniy joy, balki o'zligining bir qismi deb qabul qilishidir. Pedagogik jarayonda bu tushuncha talabani o'zi tug'ilgan makon bilan ma'naviy, madaniy va ruhiy jihatdan "Umumiy Vatan, umumiy qadriyat" deb his qildirishga qaratilgan.

Hozirgi globallashuv davrida milliy o'zlikni asrash va yoshlarda mazmunli vatanparvarlikni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi integratsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda, talaba-yoshlarni ikki xalqning umumiy tarixi va ma'naviy merosi asosida tarbiyalash do'stlik va totuv qo'shnichilikning kafolatidir. O'zbek va qozoq adabiyoti, folklori hamda milliy an'analari - mushtarak ildizlardan suv ichadigan ma'naviy xazinadir. Alisher Navoiy va Abay, Cho'lpon va Mag'jan Jumaboyev merosidagi vatanparvarlik g'oyalarini ta'lim mazmuniga tizimli tatbiq etish - kosmopolitizm va "yot madaniyat" ta'siriga qarshi maqsadli mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy vositasidir.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikning ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Jamiyatda Vatanga muhabbat tuyg'usi tarbiyasi nafaqat pedagogik-psixologik asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Bu borada Vatanga muhabbat tuyg'usining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan bog'liq pedagogik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Dissertasiyaning **“Oliy ta’lim muassasalari talabalarini Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash mazmunini takomillashtirishning pedagogik jarayonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik faoliyat jarayonida talabalarni Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash omillari ilmiy nazariy jihatdan asoslangan hamda mazkur tizimni takomillashtirishning samarali shakl, metod va vositalari tadqiq etilgan.

Pedagogik jarayonda talabalarni vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash tizimining muhim tarkibiy qismi – bu fakultetlar, kafedralar, ilmiy va ma’naviyat bo‘limlarining faol ishtirokida tashkillashtiriluvchi va amalga oshiriluvchi ommaviy vatanparvarlik ishidir. Vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning me’yoriy-huquqiy ta’minoti me’yoriy bazaning takomillashtirilishini, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-huquqiy maqomining aniqlanishi, oliy ta’lim muassasasining davlat hayotining barcha jabhalarida yuz bergan o‘zgarishlar va o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holdagi tarbiyaning yagona tizimini tarkibiy qismlari sifatidagi asosiy vazifasi ham ta’lim oluvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini tizimli yo‘lga qo‘yishdan iborat. Buning uchun “Yangi O‘zbekiston” o‘qituvchilarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, kreativ yondashuvlar haqida ko‘proq bosh qotirishimiz va ularni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur. Tadqiqotda vatanparvarlik tuyg‘usini terminal qadriyat (hayotiy maqsad) sifatida interiorizatsiya qilish (ichki e’tiqodga aylantirish) va uni boshqarishning yangi mexanizmlari taklif etiladi. Bu Milliy tarbiya konsepsiyasi maqsadlarini amaliyotga tatbiq etishning ilmiy asosidir. Vatanga muhabbat faqat tug‘ilib o‘sgan makonga bo‘lgan bog‘liqlik emas, balki shaxsning o‘z milliy va madaniy muhiti bilan identifikatsiyalanishidir. Ya’ni, talaba o‘zini mazkur jamiyatning ajralmas qismi sifatida his qilishi, millatning yutuqlaridan faxrlanishi va kamchiliklarini bartaraf etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi lozim. Bunda “Men-konsepsiyasi” milliy g‘oya bilan uyg‘unlashishi muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda “madaniy transformatsiya” jarayonlari yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global axborot makoni va “ommaviy madaniyat” ning kirib kelishi natijasida vatanparvarlik tushunchasi ham yangicha mazmun kasb etmoqda. Endilikda vatanparvarlik faqat an’anaviy tushunchalar bilan emas, balki raqamli madaniyat, texnologik rivojlanish va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlik bilan bog‘lanmoqda. Madaniy transformatsiya sharoitida talaba yoshlarda “milliy immunitet”ni shakllantirish eng dolzarb vazifadir. Bunda milliy qadriyatlarni zamonaviy media formatida (videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi ijobiy kontent) taqdim etish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Biz yashayotgan XXI asr – madaniyatlar qorishib ketayotgan, “ommaviy madaniyat” yoshlar ongiga shiddat bilan kirib borayotgan davrdir. Madaniy transformatsiya jarayonida an’anaviy qadriyatlarimiz zamonaviy shakllarga kirmoqda. Ba’zan yoshlar orasida “modernizm”ni milliy qadriyatlardan ustun qo‘yish holatlari kuzatiladi.

Talabalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish uchun milliy an’analarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish lozim. Bunda o‘zbek-qozoq do‘stligi va madaniy aloqalarini namuna sifatida

ko'rsatish, talabalarda bag'rikenglik va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish muhim strategik vazifadir. Zero, faqat o'zgalar madaniyatini hurmat qilgan va o'z tarixini chuqur bilgan yoshlarga Vatanning haqiqiy posboni bo'la oladilar.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va qozoq xalqlarining tarixiy ildizlari, dini va madaniyati bir-biriga juda yaqin. O'zbek-qozoq milliy qadriyatlaridagi mushtaraklik - mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, tinchliksevarlik va jamoaviylik tuyg'ulari talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim poydevoridir. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan qozoq millatiga mansub talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishda ikki xalqning azaliy do'stligi poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy va Abay Qunonboyev asarlaridagi insonparvarlik falsafasi, shuningdek, Alixonto'ra Sog'uniyning ilm-fanga oid o'gitlari talabalar uchun ma'naviy ideal hisoblanadi. Binobarin, o'zbek va qozoq mutafakkirlari merosini qiyosiy o'rganish talabalarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini yuksaltiradi. Pedagogik imkoniyatlarning mohiyati - talabaga vatanparvarlikni "o'rgatish" emas, balki uni o'rab turgan muhit, ta'lim mazmuni va ijtimoiy aloqalar orqali bu tuyg'uni uning ichki ehtiyojiga aylantirishdir. O'zbek va qozoq xalqlari misolida bu jarayon umumiy tarixiy xotira va madaniy transformatsiyani to'g'ri anglash orqali yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Demak, ta'lim jarayonida qozoq va o'zbek mutafakkirlarining asarlarini qiyosiy o'rganish talabalarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini yuksaltiradi va qo'shni xalqlar bilan do'stlikni mustahkamlash - Vatan farovonligining asosi ekanini anglatadi. Buyuk mutafakkir olimlarimizning Vatanga muhabbat tuyg'usi tog'risidagi g'oyalari, o'gitlarini talaba-yoshlarga singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar ajdodimiz Alixonto'ra Sog'uniy "Keraklicha din ilmini o'qish hammaga farz bo'lganidek, Vatanini va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o'qib bilishlik ham farzdir... Shu sababdan tushungan Vatanparvar o'g'lon qizlarimiz zamonaviy har ilm-hunarni asosi bilan yaxshi tushunib, imkoniyat boricha bilib o'zlashtirishga boshqalardan ortiqroq kirishmoqlari lozimdur" degan fikriga asoslanib oliy ta'lim muassasalari talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy usullariga ta'rif beramiz. O'zbek va qozoq xalqlarining tarixiy ildizlari, urf-odatlar va qadriyatlarining mushtarakligi talabalarda umuminsoniy va milliy g'ururni shakllantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy va Abay Qunonboyev asarlaridagi insonparvarlik falsafasi, shuningdek, Alixonto'ra Sog'uniyning ilm-fanga oid o'gitlari talabalar uchun ma'naviy ideal hisoblanadi. Ma'rifatparvar Abay ta'kidlaganidek, xarakter ustoz va do'stidan yuqadi. Binobarin, o'zbek va qozoq mutafakkirlari merosini qiyosiy o'rganish talabalarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini yuksaltiradi. Pedagogik imkoniyatlarning mohiyati - talabaga vatanparvarlikni "o'rgatish" emas, balki uni o'rab turgan muhit, ta'lim mazmuni va ijtimoiy aloqalar orqali bu tuyg'uni uning ichki ehtiyojiga aylantirishdir. O'zbek va qozoq xalqlari misolida bu jarayon umumiy tarixiy xotira va madaniy transformatsiyani to'g'ri anglash orqali yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik - bu faqat o'z xalqini sevish emas, balki qo'shni xalqlar bilan tinchlik va totuvlikda yashab, umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga hissa qo'shishdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda pedagogik imkoniyatlar juda keng qamrovli bo'lib, ular faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi alohida fan emas, balki barcha fanlar(Tarix, adabiyot, falsafa)mazmuniga singdirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida o'zbek va qozoq xalqlarining umumiy turkiy ildizlarini, mushtarak an'analarini yoritish orqali talabalarda "hududiy daxldorlik" hissini uyg'otish maqsadga muvofiqdir. O'zbek va qozoq adabiyoti namoyandalarining asarlarida Vatan, do'stlik va milliy o'zlikni anglash g'oyalari mushtarakdir(1-jadval).

1-jadval

O'zbek va qozoq adabiyoti siymolarining vatanparvarlik va komillik g'oyalari qiyosiy tahlili

Yo'nalish	O'zbek adabiyoti namoyandasi	Qozoq adabiyoti namoyandasi	Mushtarak g'oya va pedagogik xulosa
Insoniylik va komillik	Alisher Navoiy ("Hayratul-abror") - Adolat va xalqqa xizmat qilish eng oliy izzatdir.	Abay Qunonboyev ("Qora so'zlar") - O'zga millatlar ilmini o'rganish va millat xatolarini tuzatish.	Vatanparvarlik — bu hissiyot emas, balki ilm va axloq orqali jamiyatga keltirilgan nafdir.
Tarixiy xotira va daxldorlik	Odil Yoqubov ("Ulug'bek xazinasi") - Ajdodlar merosini asrash va ilm-fan yo'lidagi fidoyilik.	Muxtor Shoxonov ("Otrar fojiasi") - Vatan xiyonatining oqibati va umumturkiy birdamlik.	O'tmish saboqlari orqali yoshlarda milliy g'urur va ogohlikni shakllantirish.
Zamin va intellektual g'urur	Abdulla Oripov ("O'zbekiston") - Vatan tuprog'ini muqaddas bilish va intellektual salohiyat.	Oljas Sulaymonov ("Az i Ya") - Turkiy dunyo tamaddunini asrash va erkinlik g'oyasi.	"Men shu buyuk yurt farzandiman" degan ijtimoiy-psixologik ishonchni mustahkamlash.

Ushbu asarlar asosida talabalar bilan "Kitobxonlik kechalari" yoki "Adabiy muloqotlar" o'tkazish orqali ularda bag'rikenglik (turli madaniyatlarga hurmat) va vatanparvarlik (o'z milliy merosini qadrlash) tuyg'ularini parallel ravishda shakllantirish mumkin.

Amaliy dalil sifatida o'zbek va qozoq milliy adabiyoti hamda folklorining qiyosiy tahlili talabalarda "mintaqaviy daxldorlik" va "madaniy birlik" qadriyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, "Alpomish" dostoni yoki jadid ziyolilarining adabiy aloqalarini o'rganish jarayonida talabalar ikki xalqning ozodlik va Vatan tushunchalaridagi mushtaraklikni angelaydilar. Bu esa ularda nafaqat milliy g'ururni, balki qo'shni xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bunday yondashuv talabani globallashuv davridagi turli mafkuraviy xurujlardan himoya qiluvchi axborot immuniteti va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi bilan qurollantiradi. Statistik ma'lumotlar va o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

shuni ko'rsatadiki, loyihaga yo'naltirilgan ta'lim (project-based learning) usulida "Mening mutaxassisligim - Vatanim ravnaqi uchun" mavzusida keyslar bilan ishlagan talabalarning ijtimoiy faollik ko'rsatkichi an'anaviy dars o'tilgan guruhlarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi talabalarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borish orqali talabalar ongiga vatanparvarlik tuyg'ulari singdiriladi. Jamiyat taraqqiyoti ijodkor insonlarning kasbiy faoliyatiga asoslanadi. Vaqt o'tishi bilan har qanday ilmiy dalillar, g'oyalar, kashfiyotlar eskirib boraveradi. Shu asosda tajriba-sinov ishlari olib borish orqali fundamental tadqiqot ishlarini bajarish ilmiy faoliyatning takomillashuviga olib keladi. Shunga ko'ra, biz "Oliy ta'lim muassasalari qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash tizimi" bo'yicha maxsus model ishlab chiqdik va unda mavzular bo'yicha ma'ruzalar mazmunining asosiy jihatlariga e'tibor qaratdik. Bu orqali talabalarning vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadga quyidagi vazifalarni hal qilish orqali muvaffaqiyatli erishiladi:


- o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi tarixiy va madaniy mushtaraklikni targ'ib etish;

- kollaborativ ijtimoiy tarbiyaviy loyihalar orqali vatanparvarlikning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarning mustaqil ta'lim jarayoniga kognitiv integratsiyalashgan bilimlarni tizimli kiritish.

Biz tomondan takomillashtirilgan model 3 ta blokni o'z ichiga oladi: maqsadli, mazmunli va natijaviy (2-rasmga qarang). Har bir blok talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlariga qaratilgan bir qator ilmiy yondashuvlarga asoslanadi.

Modellashtirish pedagogik tadqiqotlar uchun eng ko'p qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri hisoblanadi. Model – bu real ob'yekt yoki narsa-hodisalarni ideallashtirish asosida yangi andozasini yaratishdir. Aniqroq qilib aytganda, model har doim o'rganilayotgan jarayon yoki hodisaning reduksiyasi (ya'ni soddalashtirilgan ko'rinishi)ni o'zida ifoda etadi. Talabalarni ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni modellashtirish shu paytgacha ishlab chiqilgan modellarni o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida talabalarda M. Jumabayev nomidagi "Adabiyot va san'at" to'garagi faoliyati, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti, O'zbek-qozoq adabiy aloqalari, Qozoq folklori fanlarini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan.



2-rasm. Vatanga muhabbat tuygʻusida tarbiyalash jarayolarinig tuzilmaviy-funksional modeli

Talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish vazifalarini samarali hal qilish uchun Milliy mustaqillik g'oyasiga sadoqat, tinchlikparvarlik va insonparvarlik, mehnatsevarlik va fuqorolik identitet, fidoyilik va mas'uliyatlik tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish kerak.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ravishda echish uchun “Әдебиет және өнер” (“Adabiyot va san'at”) nomli to'garagimiz yaqindan yordam beradi. “Adabiyot va san'at” to'garagi asosida oliy ta'lim muassasalari qozoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini Vatanga muhabbat tuyg'usida tarbiyalash faoliyati shakllantirildi. “Adabiyot va san'at” to'garagining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, oliy o'quv yurtida o'qitilayotgan adabiyot fani bilan uzviy birlikda, oliy ta'lim muassasalari talabalarini milliy va baynalminal ruhda tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay bo'lishlarini ta'minlash;

ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari talabalarida faol ongli, mehnatsevar, Vatan uchun jasoratga va qahramonlikka tayyor yosh avlodni tarbiyalay oladigan pedagog o'qituvchi xislatlarini rivojlantirish;

